

QO'LLANMAGA IZOH

O'QITUVCHILAR UCHUN DASTUR (KYOKENSEY) TEACHER TRAINING STUDENTS 2025

Ushbu hujjat dasturga hujjatlarni tayyorlashda e'tibor qaratish kerak bo'lgan ko'rsatmalar va qo'shimcha ma'lumotlar kiritilgan izoh deb hisoblanadi.

Dastur haqida to'liq ma'lumotni Ingliz va Yapon tilidagi ko'llanmada (Application guidelines) diqqat bilan o'qib chiqing.

Yaponiya Hukumati (Monbukagakusho: MEXT) xorijiy o'qituvchilarga muayyan yapon universitetlarida maktab ta'limi sohasida o'qituvchilar uchun dasturi talaba sifatida tadqiqot olib borishni taklif etadi.

TARTIB VA SARALASH MEZONLARI

(qo'llanmaning 1,2,6 bandini qo'ring)

Nomzod saralash birinchi bosqichida Yaponiya elchixonasi so'rovnoma ma'lumotlari, yozma imtihon (ingliz va yapon tilidan test) va suhbatlashish yakunlari bo'yicha tanlov asosida saralash o'tkazadi. Har bir nomzod yapon va ingliz tili bo'yicha imtihon topshirishi lozim. (Yapon tilidan bilim darajasi kamida boshlangich bo'lishi kerak (hiragana va katakana alifbelari)).

Nomzodning tug'ilgan sanasi 1990 yil 2 apreldan bo'lgan davrga to'g'ri kelishi kerak.

Stipendiya muddati - 2025 yil oktyabrdan 2027 yil martgacha.

NOMZODLAR SARALASH REJASI

23 dekabr 2024	dasturning e'lon qilinishi
27 yanvar 2025	hujjatlarni qabul qilish yakunlanishi
4 fevral 2025	anketalar tanlovi natijalarining e'lon qilinishi (<u>nomzodlar o'zlari telefon qilishadi</u>)
16 fevral 2025	ingliz va yapon tili bo'yicha yozma imtihon (<u>Imtihon o'tkaziladigan vaqt va joy keyinroq ma'lum qilinadi</u>)
fevral o'rtalari 2025	yoza imtihon natijalari ma'lum qilinishi
fevral ohirlari 2025	suhbatdan o'tish
iyul-avgust 2025	tanlovning yakuniy natijalari ma'lum qilinishi
oktyabr 2025	Yaponiyaga yetib kelinishi

So'rovnoma-arizani va barcha ilova qilinadigan hujjatlarni quyidagi veb-saytda olishingiz mumkin:
<https://www.studyinjapan.go.jp/en/smap-stopj-applications-teacher.html>

HUJJATLAR RO'YXATI

(qo'llanmaning 7 bandini qo'ring)

Nomzod Elchixonaga quyida ko'rsatilgan hujjatlarning 2 ta to'plamini **2025 yil 27 yanvar soat 17:00 gacha** taqdim etishi lozim. Elchixonaga topshirilgan hujjatlar qaytarilmaydi. Hujjatlarning bitta to'plami asl nusxada, ikkinchisi ko'chirilgan nusxada taqdim etilishi lozim.

№	Hujjatlar	1 asl nusxa	1 ko'chirilgan nusxa	Izohlar
①	So'rovnoma-ariza (Application form)	1	1	2025 y. belgilangan namunadagi blank. (*3) Fotosurat har bir to'plamda bitta asl nusxadan bilan. Asl nusxada imzo qo'yilishi kerak.

②	Institutlarni tanlash (Placement Preference Form)	1		2025 y. belgilangan namunadagi blank. Saralash birinchi bosqichida suhbatga muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar taqdim etishadi. (*8)
③	Baholari ko'rsatilgan diplomga ilova (oxirgi o'qish joyi bo'yicha)	1(tasdiqlangan asl nusxasi)	1	Baholar va uning tarjimasi berilgan muassasi tomonidan tasdiqlanishi lozim. (*4)
④	OO'Yu bitirganlik haqida diplom (oxirgi o'qish joyi bo'yicha)	1(tasdiqlangan asl nusxasi)	1	Diplom nusxasi berilgan OO'Yurti tomonidan tasdiqlanishi lozim (*5)
⑤	Ish joydan ma'lumot (spravka)	1	1	Hozirgi ish joyidan ingliz yoki yapon tilida taqdim etiladi (*6)
⑥	Hozirgi ish joyidan tavsiyanoma			Ixtiyoriy shaklida ham mumkin (*6)
⑦	Tibbiy guvohnoma	1	1	2025 y. belgilangan namunadagi blank, ingliz tilida to'ldirilib, doctor imzosi va shifoxonaning (poliklinika) muhri bo'lishi shart. Har qanday shifoxona (poliklinika) yoki xususiy tibbiyot markaziga murojaat qilishingiz mumkin.
⑧	yapon tili bo'yicha malakani tasdiqlovchi hujjat		2	Agar mavjud bo'lsa, yapon tili bo'yicha malakan tasdiqlovchi hujjatning 2ta nusxasi ilova qilinsin.

*** Quyidagi ko'rsatmalarga e'tiboringizni qaratamiz:**

1. Barcha hujjatlar qat'iy ingliz yoki yapon tilida to'ldirilgan va tuzilgan bo'lishi lozim.
2. To'g'ri to'ldirilmagan, yoki hujjatlar to'liq topshirilmagan taqdirda, Yaponiya elchixonasi nomzodni saralashning keyingi bosqichiga o'tkazmaslik huquqini saqlab qoladi.
3. So'rovnomaning 1 bandida ingliz tilidagi ismi-sharifingiz pasport bo'yicha yozilishi lozim. 11 bandida O'zbekiston tizimi bo'liyicha olingan ta'lim ma'lumotida «Primary Education» degan joyida 1chi sinfdan 4chi snifgacha 4 yil ko'rsatiladi; «Lower Secondary Education» - 5chi sinfdan 9chi sinfgacha 5 yil; «Upper Secondary Education» - kollej va litseydagi 3 yil; «Tertiary(Higher) Education (Undergraduate)» - OO'Yu dagi bakalavr o'quv yillari; «Tertiary (Higher) Education (Graduate)» - magistraturadagi o'quv yillari; va oxirida aspirantura yoki doktorontura o'quv yillari ko'rsatiladi. (ta'til oylari qo'shilgan holda to'liq yil inobadga olinsin).
4. BAHOLARI KO'RSATILGAN DIPLOMGA ILOVA, baholar ko'rsatilgan ko'chirmada olgan bilimlar haqida barcha ma'lumotlari bo'lishi shart (fakultet nomi, predmetlar nomi, har o'quv yilning baholari). Bundan tashqari, qay usulda baholash amalga oshirilganligi ko'rsatilishi kerak. Ingliz yoki yapon tillardan biriga tarjimasi OO'Yu da tasdiqlanishi lozim!
5. DIPLOM NUSXASI faqat originali berilgan OO'Yu da tasdiqlanishi lozim!
6. Ushbu dastur shartida Yaponiyadagi o'qishdan so'ng O'zbekistonga qaytib ishlagan joyingizda ishlashni davom ettirishi talab qilganligi sababli, ariza topshirish bosqichida ish joyidagi rahbaringiz bilan qaytishdan so'ng ish rejangizni muhokama qiling. Tavsiyanomada ish joyingiz o'rmini saqlab qolishi va Yaponiyadagi o'qishdan so'ng ishlashni davom ettirishi haqida ko'rsatilishi shart.
7. Talab etilgan barcha hujjatlarning yuqori o'ng burchagiga ① dan ⑧gacha raqamlab chiqish lozim.
8. Hujjatlarni stepler bilan biriktirish kerak.
9. Nomzod ta'lim olishni istagan universitetni (Institutlarni tanlash shakli) "Course Guide for Japanese Studies Students" katalogdan ko'rsatiladi. Quyidagi veb-saytlarda olishingiz mumkin:
https://www.mext.go.jp/a_menu/koutou/ryugaku/1423055_00020.htm

O'quv dasturlari, so'rovnomalarni to'ldirish va dastur bilan bog'liq savollar tug'ilganda

Elchixonaga qat'iy soat 09:00 dan 13:00 gacha hamda 14:00 dan 17:30 gacha,

Madaniyat va axborot bo'limiga

78 120 80 76/60/61/62 telefoniga murojaat qilishingiz mumkin.